

10-sinf ona tili. III chorak BSB 3

Esse yozish. (50 ball)

BSB bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

- mustaqil fikrlaydi, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni rivojlantiradi;
- kreativ va bir-birini takrorlamaydigan g'oyalarni tatbiq qiladi;
- maqsadni aniq qo'ya oladi va amalga oshirishga intiladi;
- materialni tartiblab, umumlashtirib, fikr va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslagan holda esse yoza oladi;
- fe'l zamonlari, fe'l nisbatlari, shuningdek, ularning imlosiga asoslangan bilimlarini yozma nutqda qo'llay oladi;
- so'zlarni qo'shib, ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish, ko'chirish qoidalariga amal qiladi;
- ko'chma ma'noni hosil qiluvchi birliklarni farqlaydi, nutqda to'g'ri qo'llay oladi;

Hajmi: 200-250 ta so'z.

MEZON	BALL
Essening qismlari	10
esseda barcha qismlar (kirish, asosiy qism, xulosa) mavjud va ular talab darajasida, mavzuga aloqador tarzda shakllantirilgan bo'lsa	10-9
essening kirish qismida biroz mavzudan chetlashilgan bo'lsa,	8-6
esseda xulosa mavjud bo'lmasa	5-3
esseda fikrlar tartibsiz berilgan bo'lsa	2-1
Dalillash, asoslash, misollar	10
fikrlar dalillar bilan asoslangan, misollar keltirilgan	10-9
fikrlarning asosi uchun keltirilgan misol va dalillar kuchsiz	8-6
misollar keltirilgan, ammo asoslanmagan	5-3
esseda argumentlar keltirilmagan, misollar hayotiy bo'lmasa	2-1
Talablarning bajarilishi	10
O'z mustaqil fikriga ega; fe'l zamonlari, fe'l nisbatlarini o'rinli qo'llagan, shuningdek, ularning imlosiga doir bilimlaridan foydalana olgan; so'zlarni qo'shib, ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish, ko'chirish qoidalariga amal qilgan bo'lsa;	10-9
O'z mustaqil fikriga ega; fe'l zamonlari, fe'l nisbatlarini o'rinli qo'llagan, lekin ularning imlosiga doir so'zlarda xatoliklar kuzatilsa	8-6
O'z mustaqil fikriga ega; fe'l zamonlari, fe'l nisbatlarini o'rinli qo'llay olmagan, shuningdek, ularning imlosiga doir so'zlarda xatoliklar kuzatilsa	5-3
O'z mustaqil fikriga ega emas; fe'l zamonlari, fe'l nisbatlarini o'rinli qo'llay olmagan, shuningdek, ularning imlosiga doir so'zlarda xatoliklar kuzatilsa	2-1
Imlo	10
Imlo xatolar soni 0 – 2 tagacha	10-9
Imlo xatolar soni 3 – 5 tagacha	8-6

Imlo xatolar soni 6 – 9 tagacha	5-3
Imlo xatolar soni 10 – 12 tagacha	2-1
Imlo xatolar soni 12 tadan ko'p	0
Til birliklarini qo'llash (g'alizlik)	10
So'z va qo'shimchalarni qo'llash bilan bog'liq xatolar soni 1 ta	10-9
So'z va qo'shimchalarni qo'llash bilan bog'liq xatolar soni 2 – 3 tagacha	8-6
So'z va qo'shimchalarni qo'llash bilan bog'liq xatolar soni 4 – 5 tagacha	5-3
So'z va qo'shimchalarni qo'llash bilan bog'liq xatolar soni 6 – 8 tagacha	2-1
So'z va qo'shimchalarni qo'llash bilan bog'liq xatolar soni 8 tadan ko'p	0

O'quvchi to'plagan ball: _____

Tekshiruvchi o'qituvchi: _____ (imzo)